




XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

XORAZM VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2024- YIL YANVAR-APREL (DASTLABKI MA'LUMOT)




Tel.: 62-224-64-99
www.xorazmstat.uz

Xorazm viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2024- yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalari tomonidan 7 147,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 105,6 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


(2024- yil 1- may holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 3 849 ta sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan 3 808 tasi kichik biznes subyektlaridir. Yangi tashkil qilingan korxonalar soni 523 ta va barchasi kichik biznes hissasiga to'g'ri kelmoqda.




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari


2024- yil yanvar-aprel oylarida viloyatimizda jami sanoat ishlab chiqarishi 7 147,9 mlrd. so'mni, shundan 0,8 mlrd. so'm tog'-kon sanoatiga, 6 890,1 mlrd. so'm ishlab chiqarish sanoatiga, 196,9 mlrd. so'm elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatiga, 60,1 mlrd. so'm suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sanoatiga to'g'ri keldi.



Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 6 890,1 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,4 % ni tashkil etdi.




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati – 61,9 %ga kamayishi, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati – 7,7 %ga o'sishi, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 40,1 %ga kamayishi, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimining 12,2 %ga o'sishi kuzatildi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2024- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,8 mlrd. so'm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 0,01 % ga to'g'ri keldi.




Xorazm viloyatining ishlab chiqaradigan sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarish- ning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6 890,1 mlrd. so’mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 96,4 % ini tashkil etdi.




2024- yil yanvar-aprel oylarini o’tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,07 % ni (2023- yilning yanvar-aprel oylarida – 0,06 %), o’rta-yuqori texnologiyali – 39,3 % (2023- yilning yanvar-aprel oylarida – 34,4 %), o’rta-quyi texnologiyali – 4,9 % (2023- yilning yanvar-aprel oylarida – 4,2 %), quyi texnologiyali – 52,1 % (2023- yilning yanvar-aprel oylarida – 56,1 %) ni tashkil etgan.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 42,4 % (2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 122,5 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,2 % (2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 33,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 26,7 % (2023-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 23,7 % (2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 84,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,7 % (2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,8 %)ni, yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), poxol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 2,9 % (2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 79,6 %)ni tashkil etdi.


* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-aprel oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda paxta tolasi 41 611,0 tonna (2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 1,1 % ga kamaygan), paxta chigiti 62 744,4 tonna (2023- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 11,1 % ga kamaygan), 11 674,3 tonna paxtadan yigirilgan ip (25,1 % ga oshgan), 1 189,0 ming kv.metr gilam va gilam mahsulotlari (2,3 marta oshgan), o'simlik yog'i 3 505,5 tonna (51,8 % ga oshgan), paxta linti 3 204,5 tonna (24,3 % ga kamaygan), uzum vinosi 106,4 ming litr (51,4 % ga kamaygan), 77,5 ming litr aroq (35,1 % ga oshgangan) hamda 15 297,1 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (38,1 % ga kamaygan) ishlab chiqarildi.


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-aprel	2024- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
O'simlik yog'i, tonna	2 309,2	3 505,5	1 196,3
Shakar, tonna	65 619,5	40 618,6	- 25 000,9
Gilam, ming.kv	512,0	1 189,0	677,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	23 546,2	15 297,1	- 8 249,1
Paxta tolasi, tonna	41 117,5	41 611,0	493,5

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Yengil avtomobillar ishlab chiqarish (2024- yilning yanvar-aprel oylarida)


Yengil avtomobillar – umumiy yoki maxsus yengil avtomobillarga bo‘linib, 2 kishidan 8 kishigacha mo‘ljallangan transport vositasi.

Viloyatimizda 2024- yilning yanvar-aprel oylarida yirik korxonalar bo‘yicha jami 23 244 dona yengil avtomobil ishlab chiqarildi. Yengil avtomobillari ishlab chiqarish o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan 22,0 % ga oshgani kuzatildi.



Maxsus yengil avtomobillar (2024- yilning yanvar-aprel oylarida)

Viloyatda 2024- yilning yanvar-aprel oylarida yirik korxonalar bo‘yicha jami 7 434 dona maxsus yengil avtomobil ishlab chiqarilib, ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 8,5 foizga oshganligini ko‘rish mumkin.




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko‘ra

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish – yo'lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o'z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, treyler va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 39,2 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 121,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2 703,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish turlarini o'z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o'rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,5 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 15,4 % ga oshgan va ishlab chiqarish hajmi 172,7 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 17,4 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 85,4 % va ishlab chiqarish hajmi 1 202,0 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yil yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,2 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 83,9 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 428,9 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 25,2 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 13,7 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 1 734,1 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-aprel oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,4 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 192,6 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 97,1 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o‘z ichiga oladi. Lekin bu bo‘limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2024- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 83,7 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmi 36,4 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Elektr uskunalari ishlab chiqarish

Elektr uskunalari ishlab chiqarish – elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va taqsimlovchi mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, bu bo‘lim elektr yorituvchi, signal uskunalari va maishiy elektr asboblari ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,2 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 49,5 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 15,9 mlrd. so‘m ekanini kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

2024- yil yanvar-aprel oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 196,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,75 % ini) tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-aprel oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 40,1 %ga kamayganligi kuzatildi.


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-aprel	2024-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektrenergiya, mln.kVt.s	461,0	397,1	- 63,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	58,7	63,5	4,8
Elektrenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	431 648	444 632	12 984

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan 2024- yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 60,1 mlrd. so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % iga) to'g'ri keldi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 59,7 %ga oshganligi, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 2,9 martaga oshganligi, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 68,6 %ga ko'payganligi kuzatildi.


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-aprel	2024- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, ming.so'm	1 745 868,0	5 051 624,0	3 305 756,0
Tabiiy suv;suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, ming so'm	40 400 751,0	64 501 322,0	24 100 571,0
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	5 311 154,0	10 501 632,0	5 190 478,0

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 372,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 19,2 % ni tashkil etdi. 2023- yilning yanvar-aprel oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 20,4 % ni tashkil etgan.

yanvar-aprel
mlrd.soʻmda




yanvar-aprel
ulushi, % da



Aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat boʻyicha 2024- yil yanvar-aprel oylarida 3 575,4 ming soʻm (2023- yil yanvar-aprel oylarida 3 065,2 ming soʻm), oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 103,6 %ni koʻrsatmoqda.

yanvar-aprel
ming.soʻmda



yanvar-aprel
oʻsish surʻati, % da

